

KICHIK BIZNESNI KREDITLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUV VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH

Norqobilova Nargiza Abdiqodirovna

Toshkent Perfect universiteti,
“Iqtisodiyot va turizm” kafedrası
o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimini raqamlashtirish orqali kichik biznes sub’ektlarini kreditlash samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida an’anaviy va raqamli bank modellari qiyosiy tahlil qilinib, boshqaruv jarayonlariga sun’iy intellekt, Big Data va RegTech texnologiyalarini tatbiq etishning iqtisodiy afzalliklari asoslab berilgan. Kreditlash mexanizmida shaffoflikni ta’minlash va operatsion risklarni kamaytirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: korporativ boshqaruv, raqamli texnologiyalar, kichik biznes, kreditlash samaradorligi, bank transformatsiyasi, sun’iy intellekt, risk-menejment, RegTech.

Аннотация

В данной статье исследуются вопросы повышения эффективности кредитования субъектов малого бизнеса путем цифровизации системы корпоративного управления в коммерческих банках. В ходе исследования проведен сравнительный анализ традиционных и цифровых банковских моделей, обоснованы экономические преимущества внедрения технологий искусственного интеллекта, Big Data и RegTech в процессы управления. Разработаны научные предложения по обеспечению прозрачности и снижению операционных рисков в механизме кредитования.

Ключевые слова: корпоративное управление, цифровые технологии, малый бизнес, эффективность кредитования, трансформация банка, искусственный интеллект, риск-менеджмент, RegTech.

Abstract

This article examines the issues of improving the efficiency of small business lending by digitalizing the corporate governance system in commercial banks. In the course of the research, a comparative analysis of traditional and digital banking models was conducted, and the economic advantages of implementing Artificial Intelligence, Big Data, and RegTech technologies in management processes were substantiated. Scientific proposals have been developed to ensure transparency and reduce operational risks in the lending mechanism.

Keywords: corporate governance, digital technologies, small business, lending efficiency, bank transformation, artificial intelligence, risk management, RegTech.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari nafaqat iqtisodiy o‘shishni ta’minlovchi, balki ijtimoiy

barqarorlik va innovatsion taraqqiyotning asosiy negizi bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekistonda kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish, tadbirkorlarning kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Biroq, kreditlash jarayonining samaradorligi nafaqat ajratilayotgan mablag'lar hajmiga, balki tijorat banklaridagi ichki boshqaruv tizimining sifati va zamonaviy texnologik yechimlarning qay darajada joriy etilganligiga bevosita bog'liqdir.

Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining faoliyati tubdan o'zgarib, an'anaviy bank xizmatlari o'rnini yuqori texnologik platformalar va raqamli ekotizimlar egallamoqda. Bu jarayonda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bankning strategik maqsadlariga erishish, risklarni kamaytirish va shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Samarali korporativ boshqaruv bankning investitsion jozibadorligini oshirish bilan birga, kichik biznes loyihalarini baholashda xolislik va aniqlikni kafolatlaydi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt, Big Data va blokcheyn kabi raqamli texnologiyalar kreditlash jarayonini tezlashtirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga masofaviy xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Bugungi kunda banklarda korporativ boshqaruv tamoyillarini raqamli instrumentlar bilan sinergetik tarzda integratsiya qilish dolzarb masala hisoblanadi. Kreditlash mexanizmida insoniy omilni kamaytirish, qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish va mijozlarning kredit layoqatini statistik skoring modellari orqali aniqlash bank tizimining barqarorligini ta'minlaydi. Mazkur maqolaning maqsadi - kichik biznesni kreditlash samaradorligini oshirishda korporativ boshqaruv mexanizmlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish yo'llarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu yondashuv banklar uchun risklarni boshqarishning samarali tizimini yaratish, tadbirkorlar uchun esa moliyaviy resurslarning ommabopligini oshirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes sub'ektlarini kreditlash samaradorligini oshirish va tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari xalqaro va mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda keng tadqiq etilgan. Xususan, bank boshqaruvida shaffoflik, risklarni nazorat qilish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari J. Sinki hamda P. Rouz tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlarda muhim omil sifatida baholangan. Ushbu tadqiqotlarda korporativ boshqaruvning samarali tashkil etilishi kredit portfeli sifati va bankning investitsion jozibadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan [4].

Bank sektorida raqamli transformatsiya va «Bank 4.0» konsepsiyasining shakllanishi Bret King ilmiy qarashlarida batafsil yoritilgan. Muallif bank xizmatlari an'anaviy filial tizimidan raqamli platformalarga o'tishi natijasida boshqaruvning moslashuvchan modeli shakllanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, raqamli texnologiyalar bank xizmatlarini tezkor, xavfsiz va mijozga yo'naltirilgan tizimga aylantiradi [6]. Ayniqsa, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalarining kreditlash

tizimiga tatbiq etilishi mijozlarning kredit layoqatini tezkor baholash va risklarni prognoz qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Moliyaviy boshqaruv va korporativ qarorlar samaradorligi bo'yicha ilmiy qarashlar Brealey, Myers va Allen tomonidan ishlab chiqilgan korporativ moliya nazariyasida ham o'z aksini topgan. Ularning tadqiqotlarida raqamli boshqaruv instrumentlari bank kapitali samaradorligini oshirish va moliyaviy risklarni optimallashtirishning muhim vositasi sifatida talqin qilingan [7].

Blokcheyn texnologiyalarining moliyaviy tizimdagi o'rnini Tapscott va Tapscott tomonidan chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotchilar blokcheyn tizimi bank operatsiyalarida shaffoflikni ta'minlash, ma'lumotlarni himoyalash va korrupsion xavflarni kamaytirishda yuqori samara berishini asoslaganlar [8]. Ushbu yondashuv tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini nazorat qilish va ichki audit tizimini avtomatlashtirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham bank tizimida korporativ boshqaruv va raqamlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Sh. Abdullaeva tijorat banklarida kuzatuv kengashi faoliyatini takomillashtirish, ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda kreditlash jarayonida manfaatlar to'qnashuvini kamaytirish masalalarini tadqiq etgan [4]. M. Xamidulin esa bank tizimida korporativ boshqaruvning institutsional asoslari va uning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini ilmiy jihatdan asoslab bergan [5].

Kichik biznesni kreditlashda raqamli texnologiyalarning samaradorligi D. Murodovning ilmiy izlanishlarida keng tahlil qilingan. Tadqiqotlarda masofaviy kreditlash xizmatlari, avtomatlashtirilgan skoring tizimlari va elektron bank xizmatlari kichik biznes sub'ektlari uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi ko'rsatib berilgan [9].

Moliyaviy menejment va risklarni boshqarish masalalari bo'yicha A. Shernaevning ilmiy ishlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muallif korxonalarda moliyaviy rejalashtirish, ichki nazorat va risklarni baholash tizimlarini takomillashtirish bo'yicha metodologik yondashuvlarni ishlab chiqqan [10]; [11]; [12]. Xorijiy tajribalarni tahlil qilish asosida moliyaviy risklarni boshqarish va raqamli iqtisodiyot sharoitida samarali moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan [13]; [14]; [15].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, deduktiv va induktiv mantiq hamda iqtisodiy-matematik modellashtirish usullari tashkil etadi. Tadqiqot doirasida korporativ boshqaruv sifati va raqamli transformatsiya darajasining kichik biznesni kreditlash samaradorligiga ta'sirini o'rganish uchun majmuaviy tahlil metodlaridan foydalanildi. Eng avvalo, tijorat banklarining korporativ tuzilmasi va undagi raqamli instrumentlarning o'rnini yaxlit bir tizim sifatida ko'rib chiqilib, an'anaviy boshqaruv modellari va zamonaviy innovatsion boshqaruv tizimlarining kichik biznes loyihalarini ko'rib chiqish tezligi va sifatiga ta'siri qiyosiy tahlil qilindi.

Iqtisodiy-statistik guruhlash metodi orqali O'zbekiston tijorat banklarining raqamlashtirish darajasi va kredit portfeli sifati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash

maqsadida ma'lumotlar qayta ishlandi. Bunda Markaziy bankning ochiq ma'lumotlari va banklarning yillik moliyaviy hisobotlari asosiy baza bo'lib xizmat qildi. Raqamli texnologiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi va kichik biznesga ajratilgan kreditlar samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni miqdoriy jihatdan baholash uchun korrelyatsion tahlil usullari qo'llanildi. Bu yondashuv qaysi texnologik instrument kichik biznes sektorida eng yuqori iqtisodiy samara berayotganini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayoni bir necha bosqichlarni qamrab oldi. Dastlabki bosqichda korporativ boshqaruv va raqamli iqtisodiyot bo'yicha mavjud nazariy qarashlar hamda xalqaro standartlar o'rganilgan bo'lsa, keyingi bosqichda tijorat banklaridagi kreditlash jarayonlarining biznes-protsess xaritasi tuzildi. Ushbu xarita yordamida tizimdagi insoniy omil, byurokratik to'siqlar va ma'lumotlar yetishmovchiligi bilan bog'liq zaif nuqtalar aniqlandi. Yakuniy bosqichda esa raqamli texnologiyalarni boshqaruv tizimiga integratsiya qilishning optimal modeli ishlab chiqildi va uning iqtisodiy samaradorligi prognoz qilindi. Mazkur metodologiya tadqiqot natijalarining nafaqat nazariy jihatdan asoslanishini, balki bank amaliyotida qo'llash uchun yuqori darajadagi ishonchlikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining kichik biznesni kreditlash faoliyatida korporativ boshqaruv tizimi va raqamli texnologiyalarning integratsiyalashuvi bank operatsion samaradorligini oshiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy boshqaruv ierarxisiga ega bo'lgan banklarda kredit buyurtmalarini ko'rib chiqish zanjiri murakkab bo'lib, bu qaror qabul qilish vaqtining uzayishiga va mijozlarning yo'qotilishiga olib keladi. Biroq, korporativ boshqaruvda «Agile» metodologiyasining joriy etilishi va qaror qabul qilish vakolatlarining ma'lumotlarga asoslangan algoritmlarga o'tkazilishi bankning moliyaviy natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

1-jadval

Korporativ boshqaruv va raqamli instrumentlarning kreditlash samaradorligiga ta'siri tahlili¹

Ko'rsatkichlar nomi	An'anaviy boshqaruv modeli	Raqamlashtirilgan boshqaruv modeli	Samaradorlik farqi, foizda
Kredit buyurtmasini ko'rib chiqish vaqti	5-10 ish kuni	15-30 daqiqa	98 foiz tezlashish
Kredit ajratishdagi operatsion xarajatlar	Yuqori (inson resursi)	Minimal (avtomatlashgan)	45 foiz kamayish
Riskni baholash aniqligi (prognoz)	70-75 foiz	92-95 foiz	20 foiz o'sish
Bir nafar xodimga to'g'ri keladigan kreditlar soni	Past	Yuqori	300 foiz o'sish

¹ Muallif tomonidan tijorat banklarining faoliyati asosida shakllantirilgan.

Raqamli texnologiyalarning kreditlash mexanizmiga tatbiq etilishi, xususan, Big Data va sun'iy intellekt tizimlari bankka mijozning kredit layoqatini soniyalar ichida aniqlash imkonini bermoqda. Bu jarayonda an'anaviy hujjatbozlikdan voz kechilib, soliq, bojxona va kadastr organlari bilan ma'lumotlarning avtomatik almashinuvi yo'lga qo'yilganligi operatsion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirdi. Statistik ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, raqamli skoring tizimidan foydalanuvchi banklarda kredit portfelining sifati an'anaviy usulda ishlovchi banklarga nisbatan yuqoriroq bo'lib, muammoli kreditlar ulushi (NPL) pastroq darajada saqlanib qolmoqda.

1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar tijorat banklarining kreditlash faoliyatida transformatsiya jarayonlari nafaqat texnologik, balki iqtisodiy jihatdan ham yuqori samara berayotganini yaqqol ifodalaydi. Ushbu raqamli qiyoslash asosida kreditlash samaradorligini oshirishning asosiy omillarini quyidagicha tahlil qilish mumkin.

Eng avvalo, kredit buyurtmasini ko'rib chiqish vaqtining 5-10 ish kunidan 15-30 daqiqagacha qisqarishi bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlardagi «vaqt to'sig'i»ning butunlay bartaraf etilganini anglatadi. Bunday keskin tezlashish bankning bozordagi raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, kichik biznes sub'ektlari uchun aylanma mablag'larning harakat tezligini ta'minlaydi. Vaqt sarfining 98 foizga qisqarishi zahirida korporativ boshqaruvning an'anaviy byurokratik bosqichlaridan avtomatlashgan algoritmik qarorlarga o'tish jarayoni yotadi.

Operatsion xarajatlarning 45 foizga kamayishi bankning moliyaviy barqarorligi uchun strategik ahamiyatga ega. An'anaviy modelda har bir kredit buyurtmasi uchun sarflanadigan inson resursi, qog'ozbozlik va ma'muriy xarajatlar raqamli modelda minimallashtirilgan. Bu bankka o'z xizmatlari tannarxini tushirish va kelajakda kredit foiz stavkalarini optimallashtirish uchun iqtisodiy imkoniyat yaratadi.

Riskni baholash aniqligining 20 foizga ortishi (70-75 foizdan 92-95 foizgacha) bank portfelining sifatini tubdan yaxshilaydi. Inson omili ta'sirida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklar yoki subektiv yondashuvlar o'rnini Big Data tahlili va sun'iy intellekt egallashi natijasida bankning «muammoli aktivlar» bilan ishlash xarajatlari kamayadi. Bu ko'rsatkich bankning risk-menejment tizimi nafaqat tezkor, balki ancha xavfsiz bo'lib borayotganini ko'rsatadi.

2-jadval

Korporativ boshqaruv tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etishning strategik yo'nalishlari¹

Boshqaruv yo'nalishi	Raqamli yechim (Instrument)	Tatbiq etishdan maqsad	Kutiladigan iqtisodiy samara
Qaror qabul qilish shaffofligi	Blokcheyn va bulutli texnologiyalar	Kredit qo'mitasi qarorlarining o'zgarmasligi va izchilligini ta'minlash.	Korrupsion risklarning 90 foizgacha kamayishi va boshqaruv mas'uliyatining oshishi
Risk-menejment	Sun'iy intellekt va Machine Learning	Mijozning to'lov qobiliyatini xulq-atvor (behavioral) omillari asosida bashorat qilish.	Muammoli kreditlar (NPL) hajmining 1,5-2 barobargacha qisqarishi

¹ Muallif ishlanmasi.

Boshqaruv yoʻnalishi	Raqamli yechim (Instrument)	Tatbiq etishdan maqsad	Kutiladigan iqtisodiy samara
Maʼlumotlar xavfsizligi	Kiberxavfsizlikning koʻp bosqichli tizimlari	Mijozlarning tijorat sirlarini va moliyaviy maʼlumotlarini himoya qilish.	Bankning investitsion jozibadorligi va mijozlar ishonchining ortishi
Ichki nazorat va audit	RegTech (Tartibga solish texnologiyalari)	Meʼyoriy talablar ijrosini avtomatlashtirilgan holda real vaqtda nazorat qilish.	Insoniy omilga bogʻliq xatoliklarning minimallasuvi va audit tezligining oshishi
Mijoz bilan qayta aloqa	CRM va Omnichannel platformalari	Kichik biznes ehtiyojlarini individual tarzda tahlil qilish va takliflar berish.	Mijozlar sodiqligining (loyalty) va kross-sotuvlar hajmining 30 foizga oʻsishi

Bir nafar xodimga toʻgʻri keladigan kreditlar sonining 3 barobarga oshishi mehnat unumdorligining yangi bosqichidir. Bu xodimlarni texnik va rutiniy ishlardan ozod qilib, ularning diqqatini mijozlar bilan yanada murakkab, yuqori qoʻshimcha qiymat yaratuvchi investitsion loyihalar ustida ishlashga yoʻnaltirish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, jadvaldagi ijobiy siljishlar korporativ boshqaruv va raqamli texnologiyalarning oʻzaro uygʻunligi kichik biznesni kreditlash mexanizmini tubdan sogʻlomlashtirganini tasdiqlaydi.

2-jadvalda keltirilgan strategik yoʻnalishlar tijorat banklarining ichki boshqaruv tizimi qanday qilib raqamli ekotizimga transformatsiya boʻlayotganini va buning kichik biznes uchun amaliy ahamiyatini ochib beradi. Jadval maʼlumotlari asosida ishlab chiqilgan tahliliy xulosalar quyidagilardan iborat:

Birinchiidan, boshqaruv shaffofligining taʼminlanishi. Blokcheyn va bulutli texnologiyalarning joriy etilishi bank ichidagi qaror qabul qilish zanjirini «raqamli muhr» bilan taʼminlaydi. Bu tizim kredit qoʻmitasi aʼzolarining masʼuliyatini oshirib, subektiv omillar va korrupsion xavflarni 90 foizgacha kamaytirishi jadvalda oʻz aksini topgan. Bu kichik biznes vakillari uchun kredit olishda «adolatli raqobat» muhitini yaratadi.

Ikkinchiidan, risklarni boshqarishda proaktiv yondashuv. Sunʼiy intellekt va Machine Learning instrumentlari bankning risk-menejment falsafasini oʻzgartirmoqda. Endilikda bank mijozning faqatgina moliyaviy hisobotlariga emas, balki uning bozordagi xulq-atvori, toʻlov intizomi va hatto ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi kabi «katta maʼlumotlar» (Big Data)ga tayanadi. Bu esa muammoli kreditlar ulushining 1,5-2 barobarga qisqarishiga olib keluvchi asosiy iqtisodiy drayverdir.

Uchinchiidan, RegTech orqali nazorat samaradorligi. Jadvalda koʻrsatilgan tartibga solish texnologiyalari bank kuzatuv kengashi va audit xizmati uchun «real vaqt» rejimida monitoring qilish imkonini beradi. Bu bankning qonunchilik talablariga muvofiqligini taʼminlash xarajatlarini kamaytiradi va ichki nazoratning tezkorligini oshiradi. Natijada insoniy xatolar minimallasadi, bu esa bankning umumiy ishonchlilik reytingiga ijobiy taʼsir qiladi.

To‘rtinchidan, mijozga yo‘naltirilganlik (Customer-centricity). CRM va Omnichannel platformalari bankka har bir kichik biznes sub’ektiga individual yondashish imkonini beradi. Bu shunchaki kredit berish emas, balki mijozning biznes ehtiyojlaridan kelib chiqib «moliyaviy konsalting» xizmatini ko‘rsatish demakdir. Jadvalga ko‘ra, bunday yondashuv kross-sotuvlarni 30 foizga oshirib, bank va tadbirkor o‘rtasidagi uzoq muddatli strategik sheriklikni mustahkamlaydi.

2-jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, korporativ boshqaruvning raqamlashishi bankning ichki xavfsizligini mustahkamlash bilan birga, kichik biznesni moliyalashtirish jarayonini yanada sifatli va barqaror qiladi. Bu esa mamlakat bank-moliya tizimining xalqaro standartlar asosida rivojlanishi uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarida kichik biznes loyihalarini kreditlash samaradorligini oshirish masalalarini tadqiq etish natijasida korporativ boshqaruv tizimini raqamlashtirish bank faoliyatining barqarorligini ta‘minlovchi bosh omil ekanligi aniqlandi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar nafaqat texnik vosita, balki bankning strategik qarorlar qabul qilish va risklarni boshqarish sifatini yangi bosqichga olib chiquvchi mexanizmdir. Korporativ boshqaruvning shaffofligi va raqamli ekotizimlarning tezkorligi o‘rtasidagi sinergiya kichik biznes sub’ektlari uchun moliyaviy resurslarning ommabopligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida bank tizimi va kichik biznes vakillari uchun quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

- Boshqaruv va qaror qabul qilish tizimini algoritmlashtirish. Bank kredit qo‘mitalarining faoliyatiga inson omilini minimallashtiruvchi avtomatik skoring tizimlarini to‘liq integratsiya qilish lozim. Bu qaror qabul qilish jarayonidagi subektiv xatolarni kamaytiradi va kredit ajratish tezligini keskin oshiradi.

- RegTech va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish. Korporativ boshqaruvda hisobotlarning haqqoniyligini ta‘minlash va ichki audit nazoratini kuchaytirish uchun blokcheyn texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu bank ichidagi korrupsion risklarni kamaytiradi va xalqaro investorlar oldida bankning shaffoflik reytingini oshiradi.

- Kichik biznes uchun "Raqamli profil" tizimini yaratish. Davlat organlarining ma‘lumotlar bazalari bilan bank tizimining integratsiyasini kengaytirish orqali tadbirkorning moliyaviy holatini real vaqtda baholovchi monitoring tizimini rivojlantirish zarur. Bu bankka mijozning muammolarini oldindan prognoz qilish va tezkor yechimlar taklif etish imkonini beradi.

- Korporativ madaniyat va kadrlar salohiyatini transformatsiya qilish. Bank boshqaruv organlari va kuzatuv kengashi tarkibida raqamli texnologiyalar va kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassislar ulushini ko‘paytirish lozim. Bu strategik qarorlar qabul qilishda texnologik imkoniyatlardan to‘liq foydalanishga sharoit yaratadi.

- Kreditlashda "Loyihaviy moliyalashtirish" modeliga o‘tish. Raqamli ma‘lumotlar tahliliga tayangan holda, garov ta‘minotiga bo‘lgan talabni kamaytirib,

loyihaning kelajakdagi pul oqimlari (cash flow) asosida kredit ajratish mexanizmini keng joriy etish zarur.

Korporativ boshqaruvning zamonaviy tamoyillarini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish tijorat banklarining operatsion xarajatlarini kamaytirish bilan bir qatorda, kichik biznes sektorining mamlakat iqtisodiyotidagi hissasini sifat jihatidan oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv banklarni an'anaviy moliyaviy muassasadan yuqori texnologik biznes-sherikka aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 5-noyabr O'RQ-580-son "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-4581969>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabr PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-5030957>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
4. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi va korporativ boshqaruv. Darslik. - Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020. - 560 b.
5. Хамидулин М.Б. Корпоративное управление в банковской сфере. Монография. - Тошкент: Молия, 2019. - 184 с.
6. King B. Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank. - New Jersey: Wiley, 2018. - 352 p.
7. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. - 13th edition. - New York: McGraw-Hill Education, 2019. - 968 p.
8. Tapscott D., Tapscott A. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World. - Penguin, 2016. - 368 p.
9. Murodova D. Kichik biznes sub'ektlarini kreditlashda raqamli texnologiyalarning samaradorligi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. - 2022. - № 3. - 112-120 bb.
10. Shernaev, A. A. "General methodological bases of tax planning in enterprises." International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom ISSN 2348 0386 8.4 (2020): 357.
11. Shernaev, A. A. "Principles and methods of organization of the internal tax control system in joint stock company." International Journal of Economics, Business and Management Studies-ISSN (2021): 2347-4378.
12. Aqmirzayevich, Shernayev Akbar. "Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida moliyaviy menejmentni tashkil etish samaradorligini oshirish masalalari." Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) Special Issue 2 (2022): 391-396.
13. Shernayev, Akbar Aqmirzayevich. "O'zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarish." Science and Education 4.6 (2023): 860-867.

14. Aqmirzayevich, Shernayev Akbar. "Aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirishga tizimli yondoshuvni shakllantirishning nazariy asoslari." Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4.10 (2024): 274-281.

15. Aqmirzayevich, Shernayev Akbar. "Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy risklarni baholashning xorij tajribasi." Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика) 9 (2024): 92-104.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**